



KONSTITUTSIYA-FAROVON HAYOTIMIZ POYDEVORI

*Ergasheva Gulhayo O'tkir qizi**Amirova Sharofat Axrolovna**Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat universiteti Yuridika fakulteti**Yurisprudensiya mutaxassisligi 2-kurs talabalari*

Annotatsiya: E'tiboringizga havola etilayotgan ushbu maqolada konstitutsiya tushunchasi haqida, respublikamiz konstitusiyasining qabul qilinish zaruriyatining vujudga kelish asoslari va uning qabul qilinishi haqida ma'lumotlar beriladi. Xususan, konstitutsiyamizda inson huquq va erkinliklarining ta'minlanganligi, tinch, farovon hayotimiz asosi ekanligi, konstitutsiya xalqimiz nomidan, avvalo, inson uchun, uning manfaatlari uchun qabul qilinganligi haqida aytib o'tiladi.

Kalit so'zlar: konstitusiya, huquq va erkinlikar, Bosh Qomusimiz, yuridik hujjat, demokratiya, xalq hokimiyyati, huquqiy davlat, erkinligimiz kafolati, umumxalq muhokamasi, komissiya, demokratiya.

Аннотация: В данной статье, предложенное к вашему вниманию, будет представлена информация о понятии Конституции, об основах возникновения необходимости принятия Конституции нашей республики и о ее принятии. В частности, в нашей Конституции раскрывается, что права и свободы человека обеспечены, что это основа нашей мирной, благополучной жизни, что Конституция принята от имени нашего народа, прежде всего, для человека, в его интересах, и что ее роль и роль в нашей сегодняшней жизни, в проводимых реформах.

Ключевые слова: Конституция, право и свобода, верховенство закона, демократия, юридический документ, народовластие, правовое государство, реформа, гарантия свободы, всенародное обсуждение, комиссия.

Hozirgi kunda konstitutsiyani davlatsiz, davlatni konstitutsiyasiz tasavvur qilish qiyin. Lekin ular ijtimoiy taraqqiyotning turl idavri mahsulidir. Davlat konstitutsiya paydo bo'lgan davrdan ancha ilgari vujudga kelgan va konstitutsiyasiz faoliyat ko'rsatgan. Konstitutsiya atamasi konstitutsiya Asosiy qonun bo'lgunga qadar ham mavjud bo'lgan. Bu atama baynalmilal atama bo'lib, lotin tilidan olingan va "o'rnataman", "tasdiqlayman" degan ma'noni beradi. Konstitutsiya atamasi hozirda "tuzilish" degan ma'noda ham ishlataladi. Yuridik jihatdan Rim imperatorlarining ko'rsatmalari ham konstitutsiya deb atalgan davrlar bo'lgan. Biz o'rganadigan konstitutsiya esa, davlatning asosiy qonuni sifatida qaraladi.

Shu davrdagi demokratik revolyutsiyalar natijasida qo'lga kiritilgan yutuqlarni alohida qonunlar doirasida mustahkamlash zarurati tug'ildi. Bunday qonun sifatida





konstitutsiya paydo bo'ldi. Dastlabki Konstitutsiya hisoblanuvchi AQShning 1787-yilgi Konstitutsiyasi davlatning asosiy qonuni sifatida o'rnatildi.

Konstitutsiya davlatning oliy kuchga ega qonuni, u Asosiy qonun deb ham ataladi. Sababi, konstitutsiya davlatchilikning, qonuniylik va huquq-tartibotning, qonunchilikning asosi. Konstitutsiya, eng avvalo, yuridik hujjatdir. Uning shu xususiyatlari va sifatlari konstitutsiyaviy huquq fanining predmetini tashkil etadi. Konstitutsiya boshqa qonunlar kabi faqat yuridik hujjat sifatidagina namoyon bo'lmay, u siyosiy hujjat hamdir. Chunki konstitutsiya jamiyatdagi siyosiy munosabatlarni ham tartibga solishga ta'sir etadi. Huquqiy davlatlar yoki shunday davlat qurayotgan mamlakatlar konstitutsiyalari g'oyaviylikdan holidir. Faqat ular ko'pg'oyaviylikning, plyuralizmning vujudga kelishi uchun, agar ular hammabop g'oya bo'lsa, sharoit yaratishi mumkin.

Shunday qilib, Konstitutsiya deganda – oliy yuridik kuchga ega davlatning asosiy qonuni tushuniladi. Bu qonun davlat tuzilishining asosiy prinsiplarini, shaxsning huquqiy holati asoslarini, hokimiyat organlari tizimi, tarkibi, tashkil bo'lish tartibi, vakolatlari, o'zaro munosabatlari, davlatning jamoat birlashmalari bilan munosabatlari asoslarini belgilovchi normalar yig'indisidan iborat bo'ladi. Konstitutsiya davlat funksiyasi doirasini, uning shaxs va jamiyat bilan aloqasi asoslarini o'rnatish bilan konstitutsiyaviy tuzum asoslarini belgilaydi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning: "Tabiiyki, har qanday davlatning yuzi, obro'-e'tibori uning Konstitutsiyasi hisoblanadi. Zotan, Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan Qomusnomadir" 1, – degan so'zleri faqat O'zbekiston konstitutsiyasiga emas, umuman Konstitutsiyalarga berilgan bahodir.

Mustaqillikka erishgandan keyin juda ko'p masalalarni endi hech kimning yordamisiz hal qilishga to'g'ri kelar edi. Birinchi navbatda, fuqarolarning tinchligini, ularning munosib hayot kechirishini ta'minlash, buning uchun mamlakat xavfsizligini ta'minlash zarurati vujudga keldi. Mustaqillikdan so'ng qaysi yo'l bilan borishni aniqlab olish zarur bo'ldi, bu keyingi ishlarni to'g'ri hal qilishga asos bo'lardi.

Shuning uchun, O'zbekiston rahbariyati atrofda, xalqaro maydonda bo'layotgan voqealardan kelib chiqib, xalq xohish-irodasiga tayanib, mamlakatni demokratik yo'ldan rivojlantirish, demokratik mamlakatlarda e'tirof etilgan prinsiplarni qo'llash maqsadga muvofiqligini, demokratik davlat qurish yo'lini tanladi.

Buning uchun demokratik talablarga va prinsiplarga javob beradigan davlat hokimiyatini yo'lga qo'yish; bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodni tashkil etish; fuqarolar manfaatiga mos keluvchi fuqaro, jamiyat, davlat munosabatini o'rnatish, unda fuqaro manfaatlarining ustunligini ta'minlash, inson, uning huquqi, erkinligi, qadr-qimmati, sha'nini oliv qadriyat darajasiga ko'tarish; mamlakatda yashovchi barcha millatlar manfaatlarini birdek ta'minlash; mamlakat xavfsizligini birday



ta'minlashni nazarda tutuvchi tashqi siyosat olib borish mamlakatimiz oldidagi eng muhim vazifalar sifatida maydonga chiqdi.

Bu vazifaga erishishi uchun birinchi navbatda, huquqiy asosni yaratish, ularni huquqiy normalarda mustahkamlash zarurati paydo bo'ldi va shu vazifani bajarish uchun mamlakatimizda birinchi marta mustaqil konstitutsiya ishlab chiqishga zarurat tug'ildi.

Shunday qilib, konstitutsiya qabul qilish zarurati nima degan savolga, O'zbekiston mustaqilligi va ana shu tufayli vujudga kelgan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish zarurligidir, deb javob bersak xato bo'lmaydi.

Mustaqillik uchun qo'yilgan shahdam qadam sifatida e'tirof etiladigan, 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan Mustaqillik deklaratsiyasi yangi konstitutsiya yaratish uchun ham asos bo'ldi. Deklaratsiya qabul qilingan Oliy Kengash sessiyasida shu hujjat prinsiplari asosida yangi konstitutsiya ishlab chiqish zarur degan xulosaga kelindi va Birinchi Prezidentimiz I. Karimov boshchiligidagi 64 kishidan iborat konstitutsiya loyihasini tayyorlash uchun komissiya tuzildi. Bu ittifoq roziliginiz qilingan katta voqeа edi. Komissiya keng vakillik xarakteriga ega bo'lib, uning tarkibiga deputatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar, Toshkent shahri vakillari, davlat, jamoat tashkilotlari, korxonalar, xo'jalik rahbarlari, taniqli huquqshunoslar, olimlar, mutaxassislar kiritildi. Oliy Kengash o'ninchi sessiyasida komissiya tarkibi qisman o'zgartirildi.

Komissiya va ishchi guruhiga jalb qilinganlar tarkibi yirik olimlar, huquqshunoslar, siyosatshunoslar, iqtisodchilar, davlat va jamiyat arboblaridan iborat bo'lib, ularning oldida mas'uliyatli, sharafli, shu bilan birga, o'ta murakkab va qiyin vazifa turar edi. Vazifaning qiyinligi shunda ediki, guruhlardagi hech kim avval shunday ish bilan shug'ullanmagan, ya'ni konstitutsiya loyihasini tayyorlash jarayonida ishtirok etmagan edi. To'g'ri, avval ham O'zbekiston tarixida uch marta konstitutsiya qabul qilingan edi, lekin ular markazda tayyorlangan Ittifoq Konstitutsiyasi andozasi asosida hech o'zgarishsiz tayyorlanib, qabul qilingan edi. Yangi tayyorlanayotgan loyiha esa, mutlaqo yangitdan, O'zbekiston uchun moslab tayyorlanishi kerak edi.

Konstitutsiya loyihasining birinchi varianti 1991-yil noyabrda tayyorlab bo'lindi. 1991-yil 31-avgustda Respublikamizda Mustaqillik e'lon qilindi. Ittifoq davrida boshlangan ishning dastlabki varianti mustaqillik davrida tugallandi. U muqaddima, 6 bo'lim va 158 moddadan iborat edi. O'zbekistonning mustaqililikka erishishi, loyiha ustida ishslashni yanada jonlantirib yubordi. Konstitutsiyada siyosiy, iqtisodiy mustaqillik o'z aksini topishi kerak edi. Shular asosida loyiha takomillashtirilib, 1992-yil bahorida 149-moddadan iborat ikkinchi variant tayyorlandi.

Mamlakatimizda konstitutsiya loyihasining umumxalq muhokamasi ikki bosqichda o'tkazilganligi, birinchi bosqich muhokamasi asosida tushgan taklif va tavsiyalar asosida loyiha takomillashtirilib, yana qayta muhokamaga qo'yilganligini, jahon konstitutsiyaviy rivojlanish tajribasida yangi holat desa ham bo'ladi. Chunki, shu vaqtgacha, konstitutsiyaviy loyihalar bir bosqichda o'tkazilib kelinar edi. Bu tajriba konstitutsianing yanada pishiq, puxta bo'lishini ta'minladi.

Konstitutsianing umumxalq muhokamasi davrida 6 mingdan ortiq taklif, tavsiya va mulohazalar bildirildi. Loyihani ishlovchi komissiyaning o'ziga bevosita mingdan ziyod xatlar kelib tushdi.

Umumxalq muhokamasi nafaqat Konstitutsiyani takomillashtirishga xizmat qildi, u Birinch Prezidentimiz I.Karimov ta'riflaganidek, xalq irodasini bevosita aniqlash, muhokama natijasida to'plangan juda boy materiallarni har tomonlama va chuqur o'rganib, tahlil qilib, uni mujassam davlat irodasi sifatida Asosiy qonunda ifodalash imkonini berdi.

1992-yil 8-dekabrda Oliy Kengashning XII chaqiriq XI sessiyasi bo'lib o'tdi. Bu sessiya tarixiy sessiya bo'lib, tarixiy ahamiyatga ega masalani muhokama qildi. Sessiyada Konstitutsiya loyihasini tayyorlovchi komissiya raisi I. Karimov ma'ruza qildi. Ma'ruzada Konstitutsiya loyihasi batafsil bayon qilib berildi. Shundan so'ng Konstitutsiya loyihasi deputatlar muhokamasidan o'tdi. Sessiyada loyiha 80 ga yaqin o'zgartirish, qo'shimcha, aniqliklar kiritildi. Ayrim takliflar asosli tarzda rad etildi.

Loyihaning har bir muddasi, bobi, bo'limlari alohida-alohida muhokama qilinib, tegishli asosli takliflar inobatga olinib, o'zgartirishlar kiritilgandan so'ng, qabul qilinish uchun ovozga qo'yildi. Deputatlar yakdillik bilan muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat Konstitutsiyani qabul qildilar. Asosiy qonunimiz xalqimiz irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi. Chunki, uni ishlab chiqishda va muhokama qilishda butun xalq ishtirop etdi. "Bir so'z bilan aytganda, Konstitutsiyamiz xalqimiz tafakkuri va irodasining mahsulidir", degan so'zlar bilan Konstitutsiyamizga ham, uni vujudga keltirgan xalqimiz ongiga ham aniq ta'rif berilgan.

Konstitutsiyamiz davlatchiligidan tarixida qabul qilingan eng demokratik Konstitutsiya bo'ldi. Unda birinchi marta shaxs va davlat o'rtasidagi munosabatlarda birinchi marta shaxs ustuvorligi, shaxs, uning huquqi, qadr-qimmati, sha'ni oliv qadriyat sifatida belgilandi, shaxsning yashash huquqi asosiy huquq sifatida mustahkamlab qo'yildi. Davlat mas'uliyatlari aniq ko'rsatib qo'yildi. Iqtisodiyot bozor munosabatlari tamoyillari asosida mustahkamlanishi belgilandi. Konstitutsiya asosida ko'ppartiyaviylik, fikrlar xilma-xilligi belgilandi. Hokimiyatni tashkil etishda hokimiyatlar bo'linishi prinsipi mustahkamlandi. Fuqarolik jamiyatni asosi sifatida o'zini o'zi boshqarish organlari mavqeい konstitutsiyaviy darajada belgilandi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov konstitutsiyaning mohiyatiga ta’rif berar ekan, shunday deb ta’kidlab o’tgan edi „Dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlarda hech bir fuqaro, hech bir odam o‘z ijtimoiy shaxsiy hayotini o‘z qonuniy manfaatlarini himoya qilishi konstitutsiyasiz tasavvur eta olmaydi”. O’tgan davr ichida Konstitutsiyamiz jiddiy hayot sinovlaridan o’tdi. Xalqimiz xayotida bu muhim hujjat asosida asrlar mobaynida yuz berishi mumkin bo‘lgan tengsiz o‘zgarishlarni amalga oshirdi. Yurtimiz sho‘rolar davridan meros bo‘lib qolgan chuqur iqtisodiy tanazzuldan qutildi, o‘tkazilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohatlar tufayli bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot qaror topib bormoqda. Demokratiya tamoyillariga asoslangan milliy davlatchilik va huquq tizimi shakllantirmoqda, ijtimoiy-madaniy soha barqaror rivojlanib, kishilarimizning ma’naviy qiyofasi yangilanmoqda, ularning ongiga istiqlol g‘oyasi tobora chuqurroq singib bormoqda, mustaqil yosh davlatimiz xalqaro jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini egallamoqda. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz manfaati yo‘lida xizmat qiladi. Asosiy qomusimiz hatto insoniyatni qamrab olgan ona tabiat, yer osti va yer usti tabiiy boyliklarigacha qonun himoyasida, chunki u ham inson uchun xizmat qiladi.

Yuqorida ta’kidlab o’tganiddek, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yilning 8-dekabrida qabul qilingan. Amaldagi konstitutsiyamiz 6 bo‘lim, 26 bob va 128 moddadan iborat. Konstitutsiya – oliy yuridik kuch sifatida qabul qilinadigan barcha qonun va normativ-huquqiy hujjatlar uchun asos vazifasini bajaradi. Konstitutsiyamiz asosida mamlakatimizda milliy qonunchilik tizimi, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari shakllandi. bugungi kunda barcha jabhalarda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyatimiz yuksalib, fuqarolarimizning dunyoqarashi tobora o‘sib bormoqda. Bularning barchasi, eng avvalo, Bosh qomusimizning hayotbaxsh kuch-qudrati natijasidir.

Muxtasar qilib aytganda, qonun adolatli bo‘lsa, u inson huquqlarini amalda himoya qilsa, shundagina odamlar qonunni hurmat qiladi va unga itoat etadi. Mamlakatimizda demokratik taraqqiyot yo‘lida qaysi sohada islohotlar amalga oshirilayotgan va qanday qonunlar qabul qilinayotgan bo‘lmashin, ularning barchasi Konstitutsiyamizda belgilangan inson huquq va erkinliklarini amalga oshirishga qaratilgan.

Respublikamizda davlat hokimiysi xalq manfaatlarini ko‘zlab, konstitutsiya hamda uning asosida qabul qilingan qonun-qoidalar vakolat berilgan idoralar tomonidan amalga oshirilishligi, jamiyat va davlat hayotning muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etilishi, respublikada demokratiya umuminsoniy tamoyillarga asoslanishini, ularga ko‘ra inson, uning hayoti erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi, O‘zbekiston Respublikasida Konstitutsiya va

qonunlarning so‘zsiz tan olinishi kabi munosabatlar o‘z aksini topgan. Shuning uchun ham eng oliy qadriyat inson, uning hayoti, qadr-qimmati to‘g‘risidagi tamoyil Konstitutsiya darajasida mustahkamlab qo‘yilgan.

Konstitutsiyamizda fuqarolarimizni nafaqat O‘zbekiston hududida, balki uning tashqarisida ham huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko‘rsatish, ularning yashash huquqi har bir insonning uзвиyy huquqi ekanligi, hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emasligi, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega ekanligi, mulkdor bo‘lish, mehnat qilish, dam olish, bilim olishligi kafolatlangan.

Konstitutsiyamiz o‘zining tub mohiyati falsafasi, g‘oyasiga ko‘ra yangi hujjat bo‘lib, unda jamiki dunyoviy ne’matlar orasida eng ulug‘i-inson degan fikr ilgari surildi.

Konstitutsiyamizda davlat iste’molchilarining huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Konstitutsiyaning barcha prinsiplari va qoidalarini hayotimizga joriy etish ularning mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetishdan boshlanadi. Shu bois, Asosiy qonunimiz tub ma’no – mazmuniga yetib bormoq va shu asosda Konstitutsiya qoidalarini hayotimizning tarkibiy qismiga aylantirmoq barcha davlat idoralari, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institatlari va fuqarolarning o‘ta mas’uliyatli vazifasi, sharaflı burchidir.

Konstitutsiyamiz naqadar teran demokratik zaminga, qudratli siyosiy-huquqiy hamda ma’naviy-ahloqiy ta’sir kuchiga egaligini hayotning o‘zi isbotlab turibdi. Konstitutsiyaning xuddi ana shu g‘oyaviy huquqiy-mafkuraviy, ma’rifiy-tarbiyaviy salohiyatini, mazmun-mohiyatini aholi keng qatlamlari, ayniqsa, yoshlar ongiga sindirish maqsadida mamlakatimiz birinchi Prezidenti tomonidan 2001 yil 4 yanvarda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish to‘g‘risida” farmoyishi qabul qilindi.

Darhaqiqat, jamiyatimizning barcha jabhalarida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning zamirida inson huquq va erkinliklariga bo‘lgan e’tibor, uning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, inson huquqlarini eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etish kabi ezgu g‘oya va bosh maqsad etib tanlanganligi bejiz emas. Bosh Qomusimizning 13-moddasida O‘zbekistonda demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari



oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi, deb e'tirof etilgan.

Mamlakatimizda sud-huquq tizimida keng ko'lamda olib borilayotgan islohotlar va tariximizda uchramagan inson huquqlarini himoya qilish davlat va nodavlat institutlarining paydo bo'lishi ushbu me'yorlarning hayotdagi amaliy tasdig'i idir. O'zbekistonda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, fuqarolik jamiyatini barpo etish, yangi shaxsni shakllantirish davlat qurilishida eng muhim yo'nalishlardan biri bo'lib qoldi.

O'tgan qisqa davrda mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklaridan kelib chiqadigan, xalqaro andozalar talablariga asoslangan ochiq huquqiy-ijtimoiy vaziyat barpo etildi. Bu esa fuqarolarping davlat hokimiysi va boshqa boshqaruvi organlarida bevosa ishtiroki, shuningdeq barcha mulk shakllariga asoslangan ma'muriy-xo'jalik tuzilmalari bilan turli-tuman munosabatlarni yo'lga quyishda imkoniyatlar yaratib berdi.

Konstitutsiyamizning barqarorligi, uning eng muhim prinsiplari va normalarini har bir O'zbekiston Respublikasining fuqarolari to'g'ri anglab olmog'i zarur. Chunki, u ma'maviy-madaniy ehtiyojlarni, vatanparvarlik tuyg'ularini, ta'bir joiz bo'lsa, xalqning vijdoni va diyonatini o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, biz uchun muqaddasdir.

O'zbekiston Konstitutsiyasi halqimizda vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalaydi, davlatimiz ramzi bo'lmish O'zbekiston madhiyasi, bayrog'i va gerbida o'z ifodasini topgan baxt saodat sari yetaklaydi.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlarni tizimli va uzviy olib borish taqozo etmoqda. Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariiga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otishga jiddiy yondoshish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oila jamiyatning asosiyligi bo'g'ini ekanliga va uning davlat va jamiyat muhofazasida bo'lish huquqiga egaligi mustahkamlab qo'yilgan. (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 63-modda). Konstitutsiyamizning alohida bir bob oilaga bag'ishlanib, uning ijtimoiy maqomi aniq ravshan belgilab qo'yilgani dunyo davlatlarining bosh qonunlarida uchramaydigan kamyob voqelikdir. Ahamiyatlisi shundaki, hech bir davlatning konstitutsiyasida oilaga bag'ishlangan bob va moddalar mavjud emas. Bu esa yurtimizda oilaga e'tiborning kuchliliginini, oila – jamiyatning asosiyligi bo'g'ini, davlat taraqqiyotini belgilaydigan kelajak avlodni tayyorlab beruvchi maskan ekanligini ifodalaydi.

Xususan konstitutsiyamiz yoshlarga oid munosabatlarni ham aniq ifodalab bergen. Konstitutsiyamizdaga har kim bilim olish huquqiga ega ekanligini ta'minlovchi



norma(41-modda) butun O'zbekiston yoshlarini ta'lif olish erkinligini kafolatlaydi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi faqat jamiyatda kishilarning yurish-turishinigina ifodalab qolmay ularning barcha huquqlari va erkinliklarini yaqqol ifodalaydi. Zero konstitutsiyamiz avvalo inson uchun, uning manfaatlari uchun, ajralmas huqu va erkinliklarini himoya qilish uchun „O'zbekiston xalqi” nomidan qabul qilinadi .

Ma'lumki, davlat va jamiyat hayotida ba'zi bir narsalar bo'ladiki, u Vatanimiz kabi yagonadir: bayrog'imiz bitta, gerbimiz bitta, madhiyamiz bitta, shu qatori Konstitutsiyamiz ham bitta. Bularning har biri o'z timsolida ona Vatanimiz, xalqimizning ezgu-maqsadlarini o'zida aks ettiradi. Shu ma'noda Konstitutsiyamiz har bir fuqaro uchun bayrog'imiz, gerbimiz, madhiyamiz kabi muqaddasdir.

Bosh qomusimiz qabul qilinishidan maqsad va vazifalarga e'tibor beradigan bo'lsak, muqaddimasida mamlakatimiz fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilish, demokratik huquqiy davlat barpo etish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida Konstitutsiya qabul qilinganligi qayd etilgan. Ya'ni Konstitutsiyamizning asosiy mohiyati insonga munosib hayot sharoitlari yaratish, uni baxtli qilishdan iborat.

Yana muhim hamda xalqaro ekspertlar tomonidan e'tirof etiladigan xususiyat – bu Konstitutsiyaning “O'zbekiston xalqi” deb boshlanishidir. Bunday jumlalarni boshqa biron bir qonunda uchratmaymiz. Buning o'zi ham xalq hokimiyatichiligining yorqin dalolati.

Konstitutsiyamizning yana bir eng muhim xususiyati – bu xalq suvereniteti e'tirof etilganlididir. Asosiy qonunimizning 7-moddasida asosan xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai ekani muhrlangan. Asosiy qonunimizda “demokratiya” va “demokratik” so'zleri 7 marta, “xalq” so'zi 24 marta qo'llangan.

G'arb olimlari dunyo konstitutsiyalari tahlili natijasida 70 ta asosiy mavzuning qamrab olinishi bo'yicha 190 davlat konstitutsiyasi va konstitutsiyaviy ahamiyatdagi boshqa hujjatlarni o'rganganda davlatimiz Asosiy qonuni 0,59 natijani ko'rsatib, nisbatan ko'proq mavzularni qamrab olgani ayon bo'ldi. Bu jihatdan Avstriya Konstitutsiyasi 0,57, AQSh Konstitutsiyasi 0,49, Buyuk Britaniyaning konstitutsiyaviy ahamiyatdagi hujjatlari 0,43 natijani ko'rsatgan.

Konstitutsiyamizda inson manfaatlari ustun qo'yilgan. Asosiy qonunimizni sinchiklab o'rgangan har bir shaxs bevosita guvohi bo'ladiki, uning butun mazmun-mohiyati insonga xizmat qilishga yo'g'rilgan. Konstitutsiyamizning biron bir joyida “davlatning huquqi” yoki “fuqarolar davlat xohish-irodasini bajarishi shart” qabilidagi qoidalar uchramaydi. Aksincha, Asosiy qonunimizda “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirilar”, “Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda

mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi” kabi davlatning majburiyatlarini uchratamiz.

Konstitutsiyamiz o‘zining insonparvarligi bilan ham ajralib turadi. Unga ko‘ra voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg‘iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir. Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta’minlaydi, bolalarga bag‘ishlangan xayriya faoliyatlarni rag‘batlantiradi.

Konstitutsiyamizning yana bir muhim jihat, bu uning barqarorligidadir. Qayd etish joizki, o‘tgan 30 yil mobaynida Konstitutsiyamizning asosiy prinsiplari, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari, jamiyat va shaxs munosabatlari, ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishiga oid normalari o‘zgarmadi. O‘tgan davr mobaynida unga 10 dan ortiq o‘zgartish va qo‘srimcha kiritilgan bo‘lsa-da, bularning deyarli barchasi davlat hokimiyatini tashkil etish bo‘limiga kiritilgan tuzatishlar bo‘lib, u ham bo‘lsa mamlakatimizda konstitutsiyaviy prinsip bo‘lgan xalq hokimiyatchiliginini kuchaytirish, davlat hokimiyatini tashkil etish va faoliyat ko‘rsatishida fuqarolarning bevosita va bilvosita ta’sirini oshirish, parlamentning davlat ichki va tashqi siyosatidagi rolini kengaytirish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishda konstitutsiyaviy va odil sudlovnинг o‘rnini yanada mustahkamlashga oid tuzatishlardir.

Tarixga nazar solsak, asrlar davomida shakllangan ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va insonning tabiiy huquqlari sivilizatsiya jarayonlari natijasida Konstitutsiya shakliga kelganini ko‘ramiz.

Konstitutsiya bashariyat hayotida ilk bor insonning ozod va erkin yashash, mulkka ega bo‘lish, ta’lim olish, mehnat qilish, saylash va saylanish kabi huquqlarini, so‘z hamda e’tiqod erkinliklarini oliy qadriyat darajasiga ko‘tardi. Mustaqilligimizning ilk davrida qabul qilingan Konstitutsiyamiz shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlarda o‘zaro huquq va majburiyatlar hamda ularning kafolatlarini aniq-ravshan belgilab berdi.

Bosh qomusimiz, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, yurtimiz fuqarolari tengligining kafolatlanishini e’tirof etdi va zamonaviy demokratik taraqqiyot uchun zamin yaratdi. Aynan shu sababli Konstitutsiyamizni ehtirom bilan ulug‘lashimiz, har tomonlama o‘rganishimiz, unga izchil amal qilishimiz, Asosiy qonunimizda mujassam bo‘lgan ajdodlarimizning buyuk merosi va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlарimiz qalbiga singdirishimiz zarur.

Zero Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek : „Mana shunday murakkab sharoitda biz faqat xalqimizning aql-zakovati, bukilmas irodasi va salohiyatiga, o‘z kuch va imkoniyatlarimizga tayanib, ayni vaqtida dunyo hamjamiyati bilan hamkor bo‘lib, dadil oldinga borishimiz shart. Bu borada bizga Konstitutsiyamiz hamisha rahnamo bo‘lib, beqiyos kuch-qudrat manbai bo‘lib xizmat qiladi. Biz bugun o‘z oldimizga katta-katta maqsadlar qo‘yib, marrani baland oldik. O‘zbekistonda

demokratik islohotlar muqarrar tus oldi va hech kim, hech qanday kuch bizni o‘z tanlagan yo‘limizdan qaytara olmaydi. Bu – bugungi hayot, bugungi zamon talabi. Bu – ko‘p millatli, bag‘rikeng, mehnatkash va olijanob xalqimizning xohish-istagi. Va biz xalqimizning tub manfaatlari, uning ezgu orzu-intilishlarini ifoda etadigan ana shunday siyosatni jadal davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki uni yangi, yanada yuksak bosqichga ko‘taramiz. El-yurtimiz, jahon hamjamiyati bizga katta ishonch bilan qaramoqda. Ana shu yuksak ishonchga har tomonlama munosib bo‘lib, qat’iyat bilan olg‘a intilib, ko‘zlagan ulug‘ maqsadlarimizga birgalikda albatta yetamiz”.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o’tishim lozimki, konstitutsiyamiz tinch, osoyishta, farovon hayotimizning kafili va poydevoridir. Xalqimizining go’zal, baxtli kunlarining asosi va kelajak yoshlarining imkoniyatlari ta’minlangan kitobdir. Konstitutsiyamiz bashariyat bizga sovg‘a qilgan huquqlarimiz, erkinlik va burchlarimiz desam, aslo mubolag‘a qilmagan bo’laman. To’la ishonch bilan aytishim mumkinki, xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi bo’lgan konstitutsiyamiz hech kimga qaram bo’lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta yashashimizning qonuniy kafolatidir. Shu sababli biz yoshlar Konstitutsiya va qonunlarimizga hurmat bilan munosabatda bo’lishimiz kerak desam adashmagan bo’laman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A „Bizdan ozod va obod Vatan qolsin” T.2-T:O’zbekiston ,1996.
2. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 08.12.1992y. www.lex.uz
3. Husanov O.T „Konstitutsiyaviy huquq” Darslik. Toshkent „Adolat” 2013.
4. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 27 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimida so’zlagan nutqidan.